
MAHALLALAR OBOD BO‘LMOQDA

Toshloq tumanida mahallalarni obodonlashtirish, hududlar qiyofasini yaxshilash va aholiga qulaylik yaratish borasidagi ishlar uyushqoqlik bilan amalga oshirilmoqda.

Ayni kunlarda mahallalarda xashar yo‘li bilan ariq va zovurlar tozalanmoqda, daraxtlarga shakl berish, oqlash ishlari amalga oshirilyapti. Tumandagi 51 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari, “Mahalla va nuroniylar” bo‘limi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi tomonidan “Navruz” umumxalq bayramiga puxta tayyorgalik ko‘rilmoqda.

Bundan tashqari «Saxovat» va ko‘mak» jamg‘armasi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta‘minlangan oilalar, nogironligi mavjud fuqarolarning 56 nafariga moddiy yordam mablag‘lari ajratildi.

2023-03-03 14:16:49